

## **BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING INNOVATSION KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**Pirnazarova Shahlo Boynazar qizi**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

E-mail: [boynazarovnashahlo@mail.ru](mailto:boynazarovnashahlo@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini shakllantirish, pedagogik faoliyatning shart-sharoitlarini aniqlashtirish.

**Kalit so‘zlar:** Kompetensiya, innovatsiya, texnologiya, pedagogik innovatika, innovatsion jarayon.

## **FORMATION OF INNOVATION COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM**

### **ABSTRACT**

Formation of innovative competence of future elementary school teachers in higher educational institutions, clarification of the conditions of pedagogical activity.

**Key words:** Competence, innovation, technology, pedagogical innovation, innovation process.

Mustaqillik yillarida ma’naviy jihatdan yetuk, jismoniy baquvvat, aqlan teran, jamiyatdagi o‘zgarishlarni, yangiliklarni o‘z vaqtida ilg‘ab oladigan inson kapitalini yaratish konsepsiysi ilgari surildi. Pedagogik kasb bir paytning o‘zida ham islo hatchchilik, ham boshqaruvchilik kasbi hisoblanadi. Shu bois, oliy ta’lim tizimida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash mazkur tizimning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bu vazifaning qay darajada samarali amalga oshirilishi mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va jamiyatimiz hayotini tubdan qayta qurish borasidagi maqsadlarga erishishni ta’minalashga katta ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Chunki, amaliyotdan ma’lumki, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning samaradorligi bu borada belgilangan vazifalarni bajarishga safarbar qilinadigan mutaxassislarning kasbiy yetukligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida bilim olish borasida yetarli darajada sharoitlar

yaratilgan. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining “Ta’lim olish huquqi” nomli 5-moddasida “Ta’lim olish huquqi ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish”[2,3] mumkinligi ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘p jihatdan jahon intellektual salohiyatiga to‘laqonli qo‘sila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga bog‘liq. Buni ta’minalash esa bo‘lajak o‘qituvchilarni va ilmiy-pedagog xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bunday muhim vazifani hal qilishning samarali yo‘llaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan qilib, ya’ni ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish ko‘nikma va malakalariga ega qilib tayyorlashdan iboratdir. Bu vazifani bajarishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, hozirda ilm-fan va texnika-texnologiyalar kun sayin, soat sayin takomillashib, rivojlanib bormoqda va natijada shunga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug‘ilmoqda.

Bu borada, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda raqobatbardoshlikni ta’minalash, rivojlangan ta’lim tizimiga uyg‘unlashish, ta’limda hamkorlikni rivojlantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion rivojlangan qilib shakllantirish masalalari dolzarb vazifalar bo‘lib hisoblanadi [9].

Bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, sifatli ta’limga yo‘naltirilgan motivasiyasini faollashtirish, ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyatning o‘rni va rolini qayta ko‘rib chiqish, ta’lim islohotlarini amalga oshirish jarayonini mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos holda prognoz qilish dolzarb muammo sifatida e’tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda sog‘lom va intellektual jihatdan kamol topgan avlodni tarbiyalash, ularni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish uchun zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlar yaratish “XX1 asr—intellektual asr” da qadriyatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e’tiborga olgan holda Vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar qilib shakllantirish hozirda nihoyatda dolzarblik kasb etmoqda va u ham milliy, ham umumbashariy mazmun—mohiyatga ega bo‘lib, uning ijrosi insoniyatni ma’naviyat va ma’rifatga, yuksak barkamollikka, ezgulikka olib boradi. Shu sababli barkamol avlodni tarbiyalash va ularni davr talabiga mos qilib shakllantirish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo‘lib kelgan. O‘zbek xalqiningo‘tmishiga nazar soladigan bo‘lsak, ajdodlarimiz ham yoshlarning innovatsion faoliyatini hamda intellektual salohiyatini yuksaltirishga doimo e’tibor berib kelgan va ularning doimo amaldagi orzusi bo‘lgan, ya’ni bu istiqbolli orzusi doimiy maqsadga aylangan va bunday orzuga erishish nafaqat oila boshlig‘i yoki ta’lim muassasalaridagi murabbiylar, balki yurtimizning donishmand-ziyolilari (olimlar,

**Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22322>**

shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, hadischilar va h.k.) va adolatparvar hukmdorlarning ham bosh maqsadi bo‘lgan.

Jumladan, bunday yuksak orzu-istiklar Abu Nasr Farobiyning fozillar jamiyatni (“Fozil odamlar shahri”), Yusuf Xos Hojibning “Saodatga eltuvchi bilim”, shuningdek, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Hoja Ahror Valiy, Az-Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Ya’qub Charxiy, Xoja Mahmud Porso, Kosoniy, Xoja Yusuf Hamadoniy, Abdulholiq G‘ijduvoniy va boshqalarning ilmi hadis yo‘nalishidagi ta’limotlari va Al-Xorazmiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo‘lgan kashfiyotlari (algoritm asoschisi), Ibn Sino tibbiyoti, Abu Rayhon Beruniyning qomusiy ilmi va ijtimoiy axloqiy qarashlari, A. Temur davlatchiligi va tuzuklari hamda uning adolatli ijtimoiy-tashkilotchilik ishlari, Mirzo Ulug‘bekning koinot ta’limini ommaviy olib borish (dorilfunun tashkil etish) haqidagi ta’limoti, Mirzo Boburning ta’limni isloh qilish sohasidagi “Hatti Boburiy”, A. Navoiyning adolatli jamiyat va ma’rifatga chaqiruvchi ta’limotlari, Ma’mun akademiyasining “Donishmandlik uyi” (“Bayt-ul hikma”) dagi ta’limotlarida teran ifoda qilingan. Hozirda bunday boy o‘tmish merosimizga ega bo‘lgan ajdodlarimiz orzusiga erishildi va u respublikamiz ahlini turli jabhalarda tub burilishlar qilishga, islohotlar qilishga ilhomlantirdi.

Bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishni amalga oshirishda esa quyidagilar nazarda tutilmog‘i lozim:

- ta’lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o‘qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;
- ta’lim, fan, texnika va texnologiyalarning iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim va kasb-hunar dasturlarini tubdan o‘zgartirish;
- milliy mafkura tamoyillari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;
- ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamiyat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta’lim muassasalarini mintaqalashtirish;
- ta’lim olishda, shuningdek, yoshlarni ma’naviy-axloqiy, kreativ, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlar rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish[9].

Jamiyatimiz kelajagi ko‘p jihatdan ta’lim-tarbiya sohasidagi innovatsion o‘zgarishlar, uni zamonamizning yangi ilg‘or talablariga javob beradigan darajaga ko‘tarishga yo‘naltirilgan ishlarning qay darajada olib borilishiga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa bo‘lajak mutaxassislarni zamon talab-larini hisobga olgan innovatsion faoliyatga yo‘naltirgan holda raqobatdosh qilib tayyorlashni talab etadi.

**Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22322>**

O‘qituvchi faoliyatini o‘zgartirmay turib, uning mas’uliyati va faolligini oshirmsandan ta’limda bir qadam oldinga siljib bo‘lmaydi. Akademik A.N. Leontyev «Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti -faoliyat, ikkinchi sharti - tarbiyadir. Faoliyat jarayonida kishilarning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat-ijtimoiy hodisa bo‘lib, hayotiy kurashning asosiy sharti», - deb ta’kidlaydi [7,8]. Ya’ni faoliyat ijtimoiy hodisa bo‘lib, shaxsiy, guruhiy, milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsadlar sari yo‘naltirilgan harakat hisoblanadi. Inson faoliyati o‘z oldiga qo‘yan maqsadlariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, ijodiy faoliyat, ilmiy faoliyat, pedagogik faoliyat, tadbirkorlik faoliyati, o‘quv-biluv faoliyati, boshqaruv faoliyati va innovatsion faoliyat kabilar. Faoliyatning mazmuni, shart-sharoitlari, vositalari o‘zgarib borishi natijasida insonning ahloqiy madaniyati takomillashib boradi.

«Pedagogik faoliyat - jamiyatning ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va milliy fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya’ni yosh avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat», - deya ta’riflaydi B.Ziyomuhamedov [4,5,6]. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo‘nalish - pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi natijasida o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo‘nalish «o‘qituvchining innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo‘ldi.

Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta’limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarda dastlab, AQSh va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida «ta’lim texnologiyasi» tushunchasi e’tirof etilgan vaqtida paydo bo‘ldi. O’sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Bu tushunchalarning paydo bo‘lishi va innovatsion ta’lim nazariyasining yaratilishi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu tushunchalar ta’lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga kiritish orqali ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta’minalash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta’lim jarayonida bolaga do‘stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi.

I.Shumpater va N.Kondratevlar «Innovatsiya» tushunchasining ilk va ulkan nazariyachilar hisoblansalar, K.Angelovskiy, V.A Slastenin va V.I.Slobadchikovlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar hamda bu borada muayyan natjalarga erishgan olimlar, - deb tan olinadilar. Jumladan, V.I.Slobadchikov shunday yozadi: «Avvalo, innovatsion faoliyatni ilmiy ijodiyot sohasidagi faoliyatga o‘xshatib bo‘lmaydi, chunki bunday o‘xshatish «Innovatsion faoliyat» termini ma’nosini sayozlashtirib yuboradi.

Chunki har qanday ilmiy-texnikaviy faoliyat o‘z tabiatiga ko‘ra innovatsion hisoblanadi. Shuning uchun innovatsion faoliyatni ma’lum bir ijtimoiy amaliyot maydonida ko‘rib chiqish zarur. Bu amaliyotni konkret subyekt nuqtai nazaridan va amaldagi an’anaga nisbatan jiddiy o‘zgarishlarga olib keladigan har qanday faoliyatni innovatsion deb hisoblash mumkin» [7].

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, 80-yillarda pedagogik faoliyatni avvaldan puxta ishlab chiqilgan dastur g‘oyalariga muvofiq amalga oshirish va dasturlashtirilgan mustaqil malaka oshirishni tashkil etish tashabbusi ko‘tarildi. Natijada, o‘qituvchilarning masofadan malaka oshirish tizimini yaratish kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi. «Innovatsion faoliyat» tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritichyanning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar: “Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o‘qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bulsa, o‘qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi” [7.8].

Innovatsion faoliyat-pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma’qul bo‘lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e’tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta’limga yo‘naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o‘rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o‘tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa ta’limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o‘rtasidagi uzilishdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo‘llash hamda ommalashtirishda ishtiroy etadi.

Innovatsyaning maqsadi-sarflangan mablag‘ yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan yangiliklardan farqli o‘laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. Shu sababli «novasiya» va «innovatsiya» tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatib o‘tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagagi faqat ba’zi elementlarini o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz novasiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: inovasiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozisiyalarini to‘la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo‘nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi,

**Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22322>**

natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb – innovatsion o‘zgarishlarga tayyogarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytildi. I.P.Podlasiy pedagogik tizimda innovatsion o‘zgarishlarning yo‘nalishlarini o‘rganish asosida quyidagilarni belgilab beradi:

- pedagogik tizimning tamomila o‘zgarishi;
- o‘quv jarayonining o‘zgarishi;
- pedagogik nazariyaning o‘zgarishi;
- o‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi;
- o‘quvchi faoliyatining yangilanishi;
- pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi;
- mazmunning yangilanishi;
- shakl, usul va ta’lim vositalarining o‘zgarishi;
- boshqaruvning o‘zgarishi;
- maqsad va natijaning o‘zgarishi [9].

Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham muallif tomonidan qayd etilgan. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta’riflash imkoniyati paydo bo‘ldi. Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion faoliyat – uzlusiz ravishda yangiliklar asosida ishslash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O‘qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o‘rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallahsga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallah;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o‘sib borayotganligini tushunish natijasida vujudga keldi. Uning tahlili faqat fan va texnika erishgan

**Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22322>**

zamonaviy yutuqlardan foydanishni o‘z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi.

Jamiyat shiddat bilan o‘zgarib borar ekan, ta’lim sohasi ham u bilan barobar o‘zgaradi va o‘qituvchidan o‘z faoliyatini rivojlantirib borishni talab etadi. Bugun o‘qituvchining asosiy vazifasi faqat ta’lim berishgina emas, balki boshqaruvchilikdan iborat bo‘lib, u ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishi va boshqarishi talab etilmoqda. Innovatsion faoliyat o‘qituvchining hamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat bo‘lib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli rivojlantirish demakdir.

Shu sababli quyidagi innovatsion faoliyat va uning tarkibiy qismlariga oid bo‘lgan tushunchalarni yoritamiz. Bu tarkibiy qismlar asosan innovatsiya, pedagogik innovatika, innovatsion jarayon, innovatsion yondashuv, innovatsion ta’lim, innovatsion faoliyat va shu kabilardan tashkil topgan.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtrishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”[9] deb ta’riflanadi.

**Innovatsiya** - bu kiritilgan yangilik, ixtiro ma’nolarini bildirib. u yangilanishni, o‘zgarishni amaliyotga joriy etish jarayoni va faoliyatidan iborat. U ilm-fan, texnika-texnologiyalar yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, ta’lim, tarbiya, boshqaruv va mehnatni optimal tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va doiralarda qo‘llanilishini aks ettiradi. Innovatsiya ta’limda zamon bilan hamnafas ta’lim texnologiyalarini yaratish bilan shug‘ullanishga doimo imkoniyat yaratib boradi.

**Pedagogik innovatika** - bu pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o‘zlashtirish, pirovardida uni amaliyotda qo‘llash haqidagi ta’limot.

Zamonaviy ta’limda pedagogik innovatikaning o‘rni va roli katta. Bunga sabab ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyoti darajasiga qarab mutazam rivojlanib, takomillashib boruvchi dinamik tizimdir. Ushbu rivojlanish va takomillashish esa ta’lim jarayonini zamon talablarini hisobga olgan holda doimo yangilab borishni talab etadi. Bular dastlab ta’lim mazmunini axborotlashtirish, intellektual-lashtirish va innovatsiyalashtirishlar negizida amalga oshirilib, undan keyin ta’lim berish jarayonini opti-mallashtirish masalasiga qaraladi. Ular asosida ta’limni boshqarishdek muhim bosqichga o‘tiladi. Bu holatlар tadqiqotchidan tadqiq etilayotgan manbagaga ijodiy yondashuvni talab etadi va bunda ulardagi ilmiy fikrlash qobiliyatları muhim ahamiyat

kasb etadi. Shular orqali tadqiqotchining o‘zi ham innovatsion rivojlanish jarayoniga kirib boradi.

**Innovatsion jarayon** - bu ko‘rib chiqilayotgan, ya’ni tadqiq etilayotgan manbani ijodiy o‘rganishda innovatsiyalarni vujudga keltirish, ularni amaliyotga joriy etish va ommalashtirish faoliyatini bilan bog‘liq jarayondir.

Ushbu jarayonning ahamiyatli tomoni shundaki, unda tadqiq etilayotgan manbaga sifat jihatidan ham, samarador-lik jihatidan ham yangilik kiritiladi va bunda tadqiqotchi (ta’lim beruvchi ham, ta’lim oluvchi ham) yangiliklar, kash-fiyotlar ichida bo‘ladi. Ushbu jarayon innovatsiyani muvaf-faqiyatli amalga oshirishda muhim didaktik asos bo‘ladi. Ushbu jarayon pedagogikada zamonaviy yo‘nalish bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyat-larini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatdir. Yana qayd etish mumkinki, innovatsion jarayon ta’lim oluvchilarni mustaqil faoliyatning yangi yo‘nalishlarini topishiga undash jarayoni hamdir, taxminlarni, bog‘liqliklarni tahlil qilish, ilm hamdir.

**Innovatsion yondashuv** - bu pedagogikada zamonaviy yo‘nalish bo‘lib, u muayyan manbaga oid tadqiqot jarayonida ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning muammolarini innovatsion metod va texnologiya yordamida hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlovchi faoliyat-ning amaliyotdagи ifodasi. Shuningdek, u manbani tadqiq etishda tadqiqotchi (ta’lim beruvchi, ta’lim oluvchi) ni mustaqil ravishda yangi yo‘nalishlarni topishga undash jarayonidir.

Innovatsion yondashuvda tadqiqotchi (ta’lim beruvchi, ta’lim oluvchi) ning faoliyatiga erkinlik (ijodiy erkinlik) asosida rahbarlik qilinadi va ularning shaxsiy tashabbuskorligi qo‘llab-quvvatlanadi.

Innovatsion qobiliyat - bu tadqiqotchining (ta’lim beruvchi, ta’lim oluvchi) ning yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunishi, muammoni ifodalay olishi, g‘oya farazini ilgari surishi uchun bilimlarni ishga sola bilish qobiliyatlar majmuidir. Ta’rifdagi majmua degan tushuncha quyidagilarni o‘z tarkibiga oladi:

- farazni (ilmiy farazni ham, ishchi farazni ham) nazariy va amaliy jihatdan tasdiqlash;
- muammoni hal qilishni izlash va topish;
- pirovard natijada yangi original mahsulotlar va ish-lanmalar yaratish.

**Innovatsion qobiliyat** tadqiqotchi ijodkorligining harakatlantiruvchi kuchidir. Shu sababli innovatsion qobiliyat shakllangan tadqiqotchi (ta’lim beruvchi, ta’lim oluvchi) yangilik uchun kurasha oladi, ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlarini tahlil qila biladi va undan o‘zining faoliyatida oqilona foydalanishga erisha oladi, ular doim o‘z ustida ishlaydi.

Demak, innovatsion qobiliyat insoniyatning necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida alohida kishilarning ilm-fanda erishgan oliy ne’mati bo‘lib, bugungi kundagi

insoniyat yaratayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar shu innovatsion qobiliyatning u yoki bu ko'rinishidan iborat ekan.

**Innovatsion ta'lism** - bo'lajak mutaxassislarni joylarda yangicha sharoitlarda ishslashga tayyorlovchi ta'lism jarayoni bo'lib, uning yordamida avval olgan bilimlar asosida ta'lismni takomillashtirish va unga samarali yangicha yondashishga mustahkam didaktik asos yaratiladi. Innovatsion ta'lismning asosiy maqsadi tadqiq etilayotgan ta'lism-tarbiya jarayonida yangicha sifat ko'rsatkichlariga va, yuqori samaradorlikka erishishdan iborat. Uning asosiy vazifalari esa quyidagilardan iborat:

- tadqiqotchini (ta'lism beruvchi, ta'lism oluvchini) ijodkorlikka yo'naltirish;
- ta'lism texnologiyalarini yangicha sifat bosqichiga ko'ta-rish;
- ta'lism-tarbiyaga oid muammolar yechimini topishning zamonaviy yondashuvarlarni tashkil qilib berishni ta'min-lash va shu kabilar.

Innovatsion ta'lism ta'lism va tarbiyada zamon bilan hamnafas ta'lism metodlari va texnologiyalarini yaratishga doim imkoniyat yaratib beradi, shuningdek, u innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va o'zlashtirish bo'yicha maqsadli innovatsion loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish yo'li bilan ilm-fanning ta'lism amaliyoti bilan integrasiyasini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

**Innovatsion salohiyat** - bu insonni innovatsion o'zgarishlar qilish faoliyatiga tayyorlashning intellektual resursi bo'lib, u tadqiqotchi (ta'lism beruvchi, ta'lism oluvchi) ichki intellektual imkoniyatlarining natijaviy mahsulidir.

Umuman olganda salohiyat so'zi kishi yoki jamiyatning ichki imkoniyatlari, hali to'la namoyon bo'limgan kuch –quvvati ma'nosida ishlatiladi.

**Innovatsion faoliyat** - bu kishining innovatsion o'zgarishlar qilish (innovatsion metod va texnologiyalar va shu kabilarni yaratish) borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi muayyan bir maqsad sari yangicha yondashuv-larining pirovard natijasi. Shuningdek, u shaxsning hayotida egallagan sohasida erkin (ijodiy) faoliyat ko'rsata olishi hamdir.

Innovatsion salohiyatli insonlar o'zi shug'ullanayotgan sohasi (o'z kasbi) doirasidagi bilimlarni o'zlashtirish va ularni og'ishmay amalga oshirishga innovatsion yondasha oladilar.

Innovatsion faoliyat insonni rejalashtirgan maqsadlarga erishish yo'nalishida boshqariladigan ichki va tashqi faolliklarning majmuasi orqali tabiatga va jamiyatga yangicha (ilg'or, rivojlangan, innovatsiyalangan va hokazo;) yondashishda muhim intellektual asos bo'ladi. Shuningdek, innovatsion faoliyat tadqiqotchilarga pedagogika va psixologiyani zamonaviy talablar asosida o'zgartirishga, ta'lism menejmenti asoslarini ifodalashga, ta'lism-tarbiya jarayon-larini boshqarishda optimal qarorlar qabul qilishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Innovatsion faoliyat va uning tarkibiy qismlari haqidagi keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, bu ma'lumotlar ta'lim jarayonini va bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning optimal variantlarini ishlab chiqishda mustahkam didaktik –propedevtik asosdan iborat bo'ladi. Shu sababli ham bo'lajak o'qituvchilarni muntazam ravishda innovatsion faoliyatga tayyorlab borish kerak bo'ladi. Bular orqali bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy yetuk intellektual salohiyatlari va innovatsion rivojlangan mutaxassislar bo'lib shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratiladi[9].

Innovatsion faoliyat - bu yangi bilimlarni egallashga va qo'llanishga qaratilgan faoliyatdir. U o'z ichiga quyidagilarni oladi: yangi bilimlarni olishga qaratilgan fundamental (nazariy, tajriba-sinov) ilmiy-tadqiqotchilik; amaliy maqsadlarga erishi va aniq vazifalarni xal qilish uchun asosan yangi bilimlarni qo'llanishga yo'naltirilgan tatbiqiy novatorlik; amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yoki yangi loyihalarni, mahsulotlarni, jarayonlarni, ishlab chiqarish va foydalanish xizmatlarni, tizimlarni yoki uslublarni yaratishga hamda ularni yanada takomillashtirishga qaratilgan amaliy tajribaviylik[9].

Bizning fikrimizcha o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini tahlil qilishni 3 bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Yangilikni pedagogik faoliyatda qo'llashdan oldingi davrdagi o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish.
2. Innovatsion faoliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.
3. Pedagogik jarayonga yangilik kiritilib bo'lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

Ma'lumki, shaxsning xislat va fazilatlari faoliyat ko'rsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi. Shu sababli o'qituvchilarda yangilikka intiluvchanlik va mustaqil mutolaa qilishga doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish lozim. Chunki yangilik - insonga ulug'verlikdan ko'ra ko'proq zavq bag'ishlaydi. Agar o'qituvchilarda innovatsion faoliyatga tayyorlash vazifalari malaka oshirish jarayonida amalga oshirilsa, amaliyotda ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etish ishlari ancha samarali bo'ladi hamda ta'lim tizimida kutilgan natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.–T.: "O'zbekiston", 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. O'RQ-637-son. 23.09.2020. – T.: 2020. – 75 b. //<https://lex.uz/docs/5013007>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 19 mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi

**Scientific Journal Impact Factor 2022: 4.556 <http://sjifactor.com/passport.php?id=22322>**

ma’ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus. <https://www.pv.uz/uz/news/>

4. Abduquddusov O. Kasb ta’limi o‘qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005. – 157 b.
5. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o‘kitish texnologiyalari. - T.: 2001. - 69 b.
6. Azizova G.G.Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirish.Ped.fanl. bo‘y. fal. dok. diss. avtoref. – T.: 2019. – 48 b.
7. Azizzxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. - T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006. - 160 b.
8. Jumayeva M.A. bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi. O‘quv qo‘llanmasi. 2021. – 123 b.